

**Shartnoma № 2022-23200-00005**  
(Nazorat o'lchovi o'tkazishga doir)

Asaka shaxar

«20» 05 2022 yil

«UzAuto Motors» AJ ni Kommunal xizmat ko'rsatish va kapital qurilish bo'limi direktori 27.09.2021 yildagi YUR/120-1937-sonli ishonchnomaga asosan ish yurituvchi Raxmonov R.S., bir tomondan keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» - deb yuritiluvchi. «Hamkor Loyiha» MCHJ nomidan korxona Nizomi asosida ish yurituvchi direktori Sobirov M. ikkinchi tomondan keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiluvchi, quyidagi shartnomani tuzdilar.

### I. Shartnoma mazmuni

1.1. Buyurtmachining buyurtmasiga asosan Bajaruvchi quyidagi bino va inshootlarni qurilish-montaj ishlari yuzasidan nazorat o'lchovini amalga oshiradi.

**Bino va inshoot nomi :** Реконструкция офисного здания поз-200, Капитальный ремонт здания столовой территории поз-130, Осуществления поекта GEM-SUV5/NB4 Сборочного цеха, Осуществления поекта GEM-SUV5/NB4 Сварочного цеха №1,3 и Прессл.

1.2. Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilib olib, to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.


### II. Shartnomaning bahosi

2.1. Shartnomaning boshlang'ich qiymati 2022-yil 12 may kungi 75787-sonli bayonnomaga asosan **108 600 000,00** (Bir yuz sakkiz million olti yuz ming) QQS siz so'mni tashkil etadi.

2.2. 2.1 banddag'i qiymat o'zgarmas xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

Shartnoma qiymatini o'zgarishiga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlar sabab bo'lganda;

Ishlar xajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.



### III. To'lov shartlari.

3.1. To'vlalar bajaruvchi tomonidan ishlar yakunlanib Buyurtmachiga topshirilgan so'ng 100% miqdorida amalga oshiriladi. Oldindan to'lov (avans) berilmaydi.

3.2. Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlarni dalolatnomaga bilan qabul qilib oladi.

### IV. Tomonlarning majburiyatları

#### 4.1. Bajaruvchining majburiyatları:

- Buyurtmachi tomonidan beriladigan xujjalari (texnik topshiriq va boshqa boshlang'ich xujjalari) taqdim etilgan xolda va ushbu shartnoma imzolangan kundan **30 ish kuni ichida** o'tkazilgan nazorat o'lchovi dalolatnomasini texnik topshiriqda ko'rsatilgan talablar asosida to'liq hajmda buyurtmachiga topshiradi;

- belgilangan reja jadval bo'yicha ishlarni tashkil etadi va ishlarni amaldagi normativ xujjalarga muvofiq sifatli qilib bajaradi;

- ishlar bajarilganidan so'ng qabul qilish-topshirish dalolatnomasini tuzib, Buyurtmachiga yuboradi;

- Ishlarni bajarish jarayonida xatolar aniqlangan taqdirda, Buyurtmachini bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi;

- Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning natijalarini kelishadi va bajarilgan ishlar haqida Buyurtmachiga axborot berib boradi.

4.2. Bajaruvchi bajarilgan ishlarni Buyurtmachining ruxsatisiz uchinchi shaxsga berishga haqli

emas.

#### 4.3.Buyurtmachining majburiyatlari:


- Bajaruvchiga shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 kun ichida zarur xujjatlarni taqdim etadi;
- Bajaruvchi ishlarni sifatli va to'g'ri bajarishi uchun barcha axborotlar bilan ta'minlaydi;
- Bajaruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida uzlusiz tanishib boradi;
- Bajarilgan ishlarni qabul qilib oladi va to'lovni amalga oshiradi.

### V. Ishni topshirish va qabul qilish tartibi

- 5.1.Bajarilgan ishlarni qabul qilish texnik-topshiriq talablariga asosan amalga oshiriladi.
- 5.2.Bajarilgan ishlarning bosqichlari, tugatilishi bilan bog'liq holda rasmiylashtiriladigan xujjatlar ro'yxati va topshirish tartiblari texnik loyihalash topshiriqnomasi bilan hamda bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan bosqichlar bo'yicha Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olinadi.
- 5.3.Bajaruvchi ishni tamomlaganidan so'ng texnik topshiriqda nazarda tutilgan holda, qabul qilish—topshirish dalolatnomasi bilan birga uch nusxada xujjatlar to'plamini Buyurtmachiga taqdim etadi.
- 5.4.Buyurtmachi xisobot xujjatlarini va ishni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini olgandan so'ng, 10 ish kuni davomida ishni qabul qilish majburiyatini oladi.
- 5.5.Buyurtmachi ishni qabul qilishni asosli rad etsa, qo'shimcha bajariladigan ishlar va ularning bajarish muddatlari ko'rsatilib, ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.
- 5.6.Bajarilayotgan ish to'xtatilganda tomonlar bir-birini 5 kunlik muddat ichida xabardor qiladilar.
- 5.7.Bajarilayotgan ish asosli ravishda to'xtatilganda va uni davom ettirish maqsadga muvofiq emas deb topilganda, ishlarning bajarilgan qismi uchun Buyurtmachi Bajaruvchiga haq to'laydi.

### VI. Tomonlarning javobgarligi

- 6.1.Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni to'laydi.
- 6.2.Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun Buyurtmachi o'z vaqtida to'lovni amalga oshirmsa, Buyurtmachi Bajaruvchiga to'lov kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov so'mmasining 0,4 foizi mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning so'mmasi shartnoma umumiy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.
- 6.3.Bajaruvchi o'z vaqtida Buyurtmachiga bajarilgan ishlarni taqdim etmasa, belgilangan tartibda olib borilgan ishlar haqida Buyurtmachiga axborot bermasa, ishlarni topshirishni kechiktirgan taqdirda, shartnoma so'mmasining 0,4 foizi mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning summasi shartnoma umumiy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.
- 6.4.Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.
- 6.5.Bajarilgan ishda asosli kamchilik aniqlangan taqdirda Bajaruvchi kamchiliklarni o'z xisobidan 1 oy muddatda bartaraf etishga majbur.



### VII. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

- 7.1.Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu holatlар shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, bunda tomonlar javobgarlikdan ozod

-etiladilar.

### VIII. Nizolarni hal etish tartibi

8.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar o'zaro hal etadilar. Agarda yuzaga kelgan nizoli masalalarni tomonlar o'zaro xal etolmasalar, nizo qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Asaka tuman iktisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

### IX. Boshqa shartlar

- 9.1. Shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.
- 9.2. Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtaida shartnoma bo'yicha yangi majburiyat paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday axdlashuv tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan yozma ravishda tasdiqlanishi kerak.
- 9.3. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

### X. Tomonlarning yuridik manzilari va bank rekvizitlari

#### BUYURTMACHI

«UzAuto Motors» AJ

Asaka tum. Humo ko'chasi № 81

Tel:

AKB «Asakabank» Asaka bo'limi

x/r: 2021 4000 8005 3230 5001

MFO: 00073. STIR: 200244767. OKED:29100

#### BAJARUVCHI

«HAMKOR LOYIHA» MCHJ

Marhamat tumani Qovunchi MFY

Ulkan ko'chasi №3

TEΛ. № 91-488-30-91

«Ipoteka bank» Istiqlol filiali

x/r: 2020 8000 2009 5257 8001

MFO: 00068. STIR: 305915874. OKED:41100

Kommunal xizmat ko'rsatish va kapital qurilish boshqarmasi direktori.:  
Raxmonov R.S.

M.O.



Direktor

Sobirov M.  
M.O.

